
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 3

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

БЕКПЎЛАТ УМУРҚУЛОВ
Бадиий нутқ – лингвистик тадқиқотлар манбаи 7

НЮБАР ХАКИМОВА
Традиционное врачевание или логманство,
концептуальные и практические направления 15

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Синтагматика согласных фонем в узбекском языке
(На материале финальных двучленных сочетаний) 18

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVICH
Teolingvistik g‘oyalarning onomasiologik tadqiqotlarda aks etishi 23

САМАНДАРОВ РУСТАМ ДЎСЁРОВИЧ
Синтактик деривация жараёни ва аппликатив модел 25

TURDIMURODOV SIROJIDDIN ESHQOBILOVICH
Xususiyat, hajm-o‘lchov va hid bildiruvchi
evfemik birliklarning lingvistik xususiyatlari 29

АЛИМАРДАНОВ ЭЛЁР ИЛХОМ ЎҒЛИ
Хоразм диалектал зонасидаги ўзбек ва туркман тиллари
контактларини ўрганишнинг назарий асослари 32

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
O‘zbek tilida lisoniy shaxsni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar 37

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar presuppozitsiyasi 41

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMRAQULOVNA
Zulfiya she’riyatida ayrim frazemalarning qo‘llanish xususiyatlari haqida 45

XUDAYBERGANOVA DILDORA KULMAMATOVNA
O‘zbek tilida zoonimlarning semantik-funksional tahlili
(Ogahiy asarlaridagi zoonimlar misolida) 49

М У Н Д А Р И Ж А

JO‘RAYEVA NASIBAXON G‘ANIYEVNA
Tarixiy asarlar leksikasida eskirgan so‘zlar tizimi 52

XAYDAROVA XURSHIDA
Takroriy taqlid so‘zlar klassifikatsiyasi
(Besh jildli o‘zbek tilining izohli lug‘ati asosida) 57

АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА ВАПАЕВА
Периоды формирования новейших
слов в узбекском и русском языках 61

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Адабиётшунослик терминларини ўзбекчалаштириш муаммолари 65

JABBOROV ESHNAZAR
Jahon ma’rifatchiligining sharqona tamoyillari 69

ҚУРОНОВ САЪДУЛЛО ДИЛМУРОДОВИЧ
Ўтиш даври романлари ва инсон концепцияси 71

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

JAHON MA'RIFATCHILIGINING SHARQONA TAMOYILLARI

Jabborov Eshnazar,
Termiz davlat universiteti
o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ma'rifatparvarlik harakatining Yevropada, dastlab Fransiyada boshlanishi jamiyatning tub o'zgarishlar uchun yetilganligidan dalolat berardi. "Ma'rifatparvarlik" atamasi birinchi bor buyuk ingliz shoiri Jon Miltonning "Yo'qotilgan jannat" dostonida qo'llangan bo'lsa-da, u feodal-mutlaq podshohlik tartiblari chidab bo'lmas darajada avj olgan Fransiya zaminida amaliyotga kiritildi. Shuning uchun ham ma'rifatparvarlik harakatining tarixiy chegaralari "Quyosh qiroli" nomini olgan va "Davlat – bu men" deyishgacha borib yetgan Lyudovik XIVning vafotidan boslab, buyuk fransuz inqiobigacha bo'lgan tarixiy davrni qamrab oladi[1].

Ma'rifatparvarlik g'oyasining adabiy asosi histuyg'u (sentimentalizm) va ikki asllik (dualizm) qarashlaridan iborat bo'lib, ulardan birinchisi ma'rifatparvarlik harakatining boshlang'ichi davrida shakllangan bo'lsa, ikkinchisi ayni harakatning keyingi yillardagi rivojlanish jarayonlarida taraqqiy etgan. Ma'rifatparvarlik harakatiga Sharl de Sent-Evremon, A.Bulenvile, Beyl, Meli kabi taniqli ijodkorlar asos solgan bo'lib, keyinchalik uni Volter, Monteskyo, Kondilyak, Lametri, Golbax, Russo, Didro, Gelvetsiy, Byuffon kabi zabardast tafakkur egalari keng ko'lamda davom ettirdilar va ma'rifatparvarlik tamoyillarining butun Yevropa bo'ylab keng tarqalishiga muvaffaq bo'ldilar. Ma'rifatparvarlik g'oyalari "ma'rifat asri"dan keyin ham keng tarqalib, ijtimoiy-siyosiy, milliy-ozodlik harakatlarining rivojlanishiga xizmat qildi.

Markaziy Osiyo xalqlarining milliy-ozodlik harakatlarini g'oyaviy-ma'rifiy jihatdan tayyorlab bergan va ularni milliy mustaqillikka ruhlantirib turgan ma'rifatparvarlar orasida Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar, Fitrat, Cho'lpon, Hamza, Abdulla Avloniy kabi siymolarni e'tirof etish lozim.

Ma'rifatparvarlikda optimizm juda zarur kategoriya bo'lib, u kechayotgan voqea yoki hodisaning porloq istiqboliga, ezgulikning qabohat, yaxshilikning yomonlik, adolatning adolatsizlik, yorug'likning zulmat, hurlikning zulm ustidan, albatta, g'alaba qilishiga kuchli ishonishdir.

Adabiyot tarixida optimistik qarashlarni bilim sohiblari turlicha ifodalab, targ'ib qilib kelganlar. Bunga O'rta asr Sharq va Yevropa Uyg'onish davri insonparvarlik g'oyalari vakillari, XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan yurtimiz ziyolilarining ilmiy va ijodiy faoliyatini misol tariqasida keltirish mumkin. Ularning qarashlari optimistik ruh bilan yo'g'rilgan bo'lib, ular istiqbolli kelajakka faqat inson aqlining ezgu ishlarga bo'lgan qodir ishonchi orqaligina erishish mumkin, deb hisoblaganlar[2]. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, ular xalq ommasini hayotni sevish, inson aql-idrokini qadrlash, ilm-ma'rifatni egallashga chorlaganlar.

Tarixiy taraqqiyot natijasida optimistik qarashlar va ularning yo'nalishlari davr taqozosi hamda talabiga ko'ra turlicha ko'rinishlarga ega bo'lgan. Qarashlardagi umumiy xususiyatlar mavjud qashshoqlik, ijtimoiy adolatsizlik, huquqsizlikka qarshi xalq ommasi noroziligining ifodasi, undan qutulish va taraqqiyotga erishish uchun ilm-fanni egallash, ma'rifatli bo'lishga chaqirish edi.

Fransuz ma'rifatparvarlari singari xurofot, bid'at, doimiy savodsizlikka qarshi kurashganlardan biri Ahmad Donish ijodi va faoliyati XIX asrdagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarni anglab olishga yordam beradi. U riyozat, handasa, falakiyot, musiqa, tarix va falsafa sohasida muvaffaqiyatli qalam tebratdi va o'z davrining ilg'or mutafakkiri darajasiga ko'tarildi. Ahmad Donishning ijtimoiy-falsafiy qarashlari "Navodir ul-vaqoe", "Mang'it amirlari tarixi" kabi asarlarida o'z ifodasini topgan[3].

Faylasuf adib Umar Hayyomning olam abadiyligi haqidagi fikrlariga xayrixohlik bilan qaraydi. Ruhning jismga munosabati masalasini hal qilish uchun,

[1] Рубан А.А. Образ Парижа во французкой литературы конца XIX-начала XX века: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Москва, 2004. – С. 267.

[2] Литературный энциклопедический словарь. — Москва: СЭ, 1987. — С 287.

[3] Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe. -Toshkent: Fan, 1964. – B. 6.

- deydi u, - ruhning nimaligi va qayerda turishini tushuntirib berish kerak. Ruh arshi a'loda deyish bilan cheklanib bo'lmasligini aytib, "Ruhning arshdan tashqaridaligini aqlimiz bilmaydi, umuman aytganda, bu haqida fikr yuritish man etiladi[1] - deydi u.

Ahmad Donishning fikricha, ruh ikki ko'rinishga ega:

a) sof, muqaddas, ilohiy ruh – u hamma jismlarga o'z nurini sochib turadi;

b) ikkinchi ko'rinishdagi ruh narsalar dunyosiga tegishli bo'lib, u moddiy dunyoda mavjud va o'limga mahkum, ya'ni u vujudga kirish va barham topish jarayonini o'zida kechirib turadi.

Ayni chog'da Ahmad Donish: "Ruh jismda barhayotdir, jismdan tashqarida bu ruh yo'qdir" - deb yozadi. Demak, ruh jism ichida bo'lib, u jismning sirtida bo'lishi mumkin emas. Shu ma'noda u ruhning ko'chib yurishi (tanosub) to'g'risidagi ta'limotga qo'shilmaydi.

Ahmad Donish inson ongi olamni bilishga qodir, u turli fanlarni egallab, dunyo sirlarini ochishga yaratilgan, deb hisoblaydi. "Biz, - deydi u, - dunyoni gullatib-yashnatish uchun yer osti boyliklarini topish, dunyoning ajoyib sirli tomonlarini tadqiq etish, uning hamma qit'alari va aholisini bilish uchun tug'ilganmiz". Ahmad Donish ilmiy tafakkurni rivojlantirish asosida asriy qoloqlikdan chiqib olish, mamlakat manfaatlarini himoya qilish mumkin deb hisoblaydi. Uning adabiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari ana shu orzu-niyat bilan sug'orilgan edi.

Ma'rifatga erishishning yana bir mezoni bu til bilan dilning birligidir. Til va dil bir bo'lsagina kishi o'ylaganini gapiradi. Mazkur fikrni fransuz yozuvchisi Sharl de Sent-Evremonning "O'ylaganini ayta bilmaslikdan ko'ra ham og'irroq azob yo'q"[2], - degan so'zi quvvatlaydi. Jamiyatning butunligini va hamjihatligini ta'minlovchi asosiy tamoyillardan biri, shubhasiz, o'zaro ishonch evaziga qurilgan mo'tadil erkinlikdir. Buning negizida milliy an'ana, qadriyatlar, ma'naviylik, axloq turishi joiz ekanligini anglatganlar[3].

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ma'rifatparvarlik oqimi faqat G'arbiy Yevropa adabiyotiga tegishli bo'lmagan. U Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotida qadimdan mavjud bo'lgan islom ma'rifati manbalariga tayangan holda XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida kun tartibiga qo'yilgan. Millat va xalqni yuksak ma'rifat egasi sifatida ko'rish, xalqimizdagi olmas ma'rifatchilik g'oyalarini o'quvchilar o'rtasida targ'ib etish va shu orqali mamlakatni obod ko'rish o'zbek marifatparvar adiblarining ham maqsad va vazifalaridan edi.

Rezyume. Maqolada O'zbekistonda ma'rifatparvarlikning g'oyaviy asoslarini yaratgan, millat ozodligi va yurt farovonligi uchun mardona kurashgan, bu yo'lda ko'p qurbonlar bergan jadidlar harakati ozod va obod Vatan qurish, erkin va farovon hayot barpo etish orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish yo'lidagi milliy-ozodlik kurashining yorqin ifodasi ekani haqida gap boradi.

Резюме. В статье говорится о том, что джадидистское движение в Узбекистане, заложившее идейные основы просвещения, мужественно сражавшееся за свободу нации и благополучие страны, принесшее на этом пути много жертв, является ярким выражением национально-освободительной борьбы на пути к осуществлению мечты о построении свободной и процветающей Родины, построении свободной и благополучной жизни.

Resume. The article talks about the fact that the Jadid movement, which laid the ideological foundations of enlightenment in Uzbekistan, fought valiantly for the freedom of the nation and the prosperity of the country, which suffered many victims along the way, is a vivid expression of the national-liberation struggle for the realization of dreams of building a free and prosperous homeland.

[1] Ko'rsatilgan asar. 45-bet.
[2] История французской литературы. – Москва: Просвещение, 1978. – С. 33.
[3] Kornilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2006. – B. 76.